

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



FORS VA O'ZBEK TILLARIDA QISQARTMALARDAN FOYDALANISH PRINSIPLARI

*Hulkar Mirzaxmedova**O'qituvchi, Dotsent, DSc,**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ISO 704, abbreviatura, xalqaro Standart, Fors tili va adabiyoti akademiyasi, o'zbek Atamaqo'mi, fors tili, o'zbek tili, termin, terminologiya, abbreviatura yasalishi.

Annotatsiya: Maqolada fors va o'zbek tillarida ishlatiluvchi va taklif qilingan abbreviaturalar, ya'ni qisqartmalar va ularning qay birini tilda qo'llash muvaffaqiyatli ekanligi borasidagi qiyosiy-solishtirma tahlili amalga oshirilgan.

Ma'lumki, dunyo terminologiyasidagi termin yasalishi ikki jarayon bilan bog'liq holda yuz berishi ta'kidlanadi: 1) termin yasalishi va 2) terminning qayta yasalishi. Shu ningdek, birikmalar sifatida ishlatiluvchi so'z-atamalarni, terminlarni qisqartma shaklida ishlatish lingvistik qulaylikni yuzaga keltiradi. Mazkur abbreviaturalarni yasash prinsiplarini o'rganish termin va so'z yasash imkoniyatlarini chuqur tahlilga imkon beradi. Shu maqsadda, maqolada fors va o'zbek tillarida yasalayotgan abbreviaturalar va ularning qaysi bir shaklini tilda ishlatish masalalari yuzasidan tahlillar va xulosalar keltirilgan.

Eronda til sofliğini saqlab qolish maqsadida davrlarga qarab, uchta "Til akademiyalari" tashkil etilgan. Ularning so'ngisi "Fors tili va adabiyoti akademiyasi", ya'ni uchinchi akademiya bo'lib, u 1991-yilda tashkil topgan va o'z Y o'riqnomasiga ega. Xuddi shu davrda o'zbek tilida Atamaqo'm o'z faoliyatini boshlagan va qisqa davrda o'z ishini yakunlagan.

Maqolada dunyo terminologiya maktabida yuzaga kelgan Xalqaro terminologiya tashkiloti Standarti – ISO 704, undagi abbreviatura hosil qilish prinsiplarining fors va o'zbek tillari termin yasash qoidalariga ta'siri, ularning har biridagi farqli va o'xshash qirralari tahlillari keltirilgan. Shuningdek, fors va o'zbek tillaridagi abbreviaturalar, abbreviaturalar ishlatishi doirasida yuzaga keladigan kontekstual dubletlar va ulardan qay birini tilda qo'llash masalalari bo'yicha tahlillar olib boriladi. Qiyoslangan nazariyalar natijasida o'zbek tilida abbreviatura yasash bo'yicha qator takliflar keltirilgan.

PRINCIPLES OF USING ABBREVIATIONS IN PERSIAN AND UZBEK LANGUAGES*Hulkar Mirzakhmedova*

Lecturer, Associate Professor, DSc,
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: ISO 704, abbreviation, international standard, Academy of Persian Language and Literature, Uzbek Terminology, Persian language, Uzbek language, term, terminology, abbreviation creation.

Abstract: In the article, a comparative analysis of the used and proposed abbreviations in the Persian and Uzbek languages, i. e. abbreviations, and the success of using any of them in the language was carried out.

It is known that the creation of a term in the terminology of the world takes place in connection with two processes: 1) creation of a term and 2) re-creation of a term. Also, the use of words and terms used as combinations in the form of abbreviations creates linguistic convenience. Studying the principles of formation of these abbreviations allows a deep analysis of the possibilities of term and word formation. For this purpose, the article presents analyzes and conclusions on the issues of abbreviations made in Persian and Uzbek languages and which form of them is used in the language.

In order to preserve the purity of the language in Iran, three "Language Academies" were established depending on the period. The last of them is the "Academy of Persian Language and Literature", the third academy, which was founded in 1991 and has its own Guidelines. In the same period, Atamaqom started its activity in Uzbek language and completed its work in a short time.

The article presents the impact of the International Terminology Organization Standard - ISO 704, which was created at the World School of Terminology, the principles of forming abbreviations in it on the rules of term formation in Persian and Uzbek languages, as well as the analysis of the different and similar aspects of each of them. Abbreviations in the Persian and Uzbek languages, contextual doublets that occur within the framework of the use of abbreviations, and the issues of using any of them in the language are also analyzed. As a result of the compared theories, a number of suggestions for making abbreviations in Uzbek language are presented.

ПРИНЦИПЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОКРАЩЕНИЙ В ПЕРСИДСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ*Хулкар Мирзахмедова*

Преподаватель, Доцент, DSc,
Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: ISO 704, аббревиатура, международный стандарт,

Аннотация: В статье проведен сравнительный анализ используемых и предлагаемых сокращений в персидском и

Академия персидского языка и литературы, узбекская терминология, персидский язык, узбекский язык, термин, терминология, создание сокращений.

узбекском языках, включая аббревиатуры, и успешности их использования в языке. Известно, что создание терминов в терминологии происходит в результате двух процессов: 1) создания и 2) воссоздания терминов. Использование слов и терминов в форме сокращений обеспечивает лингвистическое удобство. Анализ принципов формирования этих сокращений позволяет глубоко исследовать возможности терминологического образования. В статье представлены анализ и выводы по вопросам сокращений в персидском и узбекском языках, а также о том, какая форма их используется в языке.

Для сохранения чистоты языка в Иране были созданы три "Языковые академии", последняя из которых - "Академия персидского языка и литературы", основанная в 1991 году и имеющая свои собственные руководящие принципы. В этот же период на узбекском языке начал работу "Атамаком", который в короткие сроки завершил свою деятельность.

В статье рассматривается влияние стандарта Международной терминологической организации - ISO 704, созданного во Всемирной школе терминологии, на формирование сокращений в персидском и узбекском языках, а также проведен анализ различий и сходств каждого из них. Также рассматриваются аббревиатуры в персидском и узбекском языках, контекстуальные дублеты, возникающие при использовании аббревиатур, и вопросы их использования в языке. В результате сравнения теорий предложены рекомендации по составлению сокращений в узбекском языке.

INTRODUCTION/ ВВЕДЕНИЕ/KIRISH

Fors tilida termin yasashda Eronning *فرهنگستان زبان و ادبیات ایران* *farhangestān-e zabān va adabeyāte irān* "Fors tili va adabiyoti akademiyasi" o'zining *اصول و ضوابط واژه گزینی* *osul va zavābet-e vāžegozini*¹ "So'z tanlashning usul va qoidalari" yo'riqnomasini ishlab chiqqan. Fors tilida taklif qilinuvchi barcha termin va abbreviaturalar mazkur Yo'riqnoma asosida hosil qilinadi va foydalanish uchun taklif qilinadi.

O'zbek tiliga "Davlat tili" maqomi berilishi bilan ruscha-baynalmilal so'zlarni cheklash, rus tili orqali o'zlashmalarni tildan siqib chiqarish jarayonlari avj oldi. Natijada, 1991-yilda o'zbek tilining ijtimoiy mavqei oshirish maqsadida "O'zbek Atamashunoslik qo'mitasi" – Atamaqo'm tashkil etildi. Uning tashabbusi bilan qator o'zlashmalarga o'zbek tilining ichki imkoniyatidan kelib chiqib modullar taklif qilindi. E'tiborli jihati, bu termin (atama)larning aksariyati arab va fors tillarining so'zlari hisoblanib, sun'iy va zo'rma-zo'raki taklif qilingani uchun tilga singimadi. Maqolada fors va o'zbek tillarida Akademiya va Atamaqo'mning abbreviatura yasash bo'yicha takliflari va ishlab chiqqan prinsiplari qiyosiy tahlil qilinadi.

ISO-704 Xalqaro Standartda abbreviaturalarni yasash, ulardan foydalanish yo'riqlari bo'yicha boshqa terminologiya maktablariga nisbatan yirik ilmiy-nazariy g'oyalarni taklif qilgan va unda, chunonchi quyidagilar yozilgan: "Haddan tashqari uzun nom ba'zi terminlardan

¹ اصول و ضوابط واژه گزینی "همراه با شرح و توضیحات" ویرایش سوم، فرهنگستان زبان و ادب فارسی خرداد 1388. ص. 58

foydalanishni qiyinlashtiradi. Soʻzni qisqartirish yoki maʼnosini belgilaydigan soʻz yoki birikmalarning yangi qisqartirilgan shakllarini yaratishi mumkin”².

Shu bilan birga Standartda abbreviatura yasashining qator usullari keltirilgan boʻlib, ular quyidagilardir:

1) Qisqa formalari: murakkab birikma terminlardagi asosiy mazmuni ifodalovchi birikmaning oʻzini qoldirish, birikma terminning qolgan qismidan voz kechish. Bu holatda ifodalayotgan boʻlak nazarda tutilayotgan terminning maʼnosini oʻz zimmasiga oladi. Masalan: ‘Intergovernmental Group of Twenty-four on International Monetary Affairs’ “Xalqaro valyuta tashkilotining hukumatlararo 24-guruhi” → Group of Twenty-four “24-guruh” tarzida.

2) Qisqartirilgan terminlar . Bu usul orqali maʼlum termin tarkibidagi ikki yoki uch yoki toʻrttagacha birikma harflarining oʻzini qoldirgan holda “qisqartirilgan termin” hosil qilinadi. Misol uchun, ‘taxonomy’ ‘taksonomiya’ termini → ‘taxon’, ‘influenza’ ‘gripp’ termini → ‘flu’ qilib qisqartirilgan.

3) Harfiy qisqartmalar. Bu holatda birikma termin birinchi harflarining oʻzi bosh harflar bilan nuqtalar qoʻyib ajratgan holda yoki nuqtasiz qoʻshib ham yoziladi: ‘personal computer’ ‘shaxsiy kompyuter’ → ‘PC’, ‘et cetera’ ‘va hokazo’ → ‘etc.’ ‘va h.k.’ kabi.

4) Akronimlar. Bu kabi abbreviaturalar, asosan, tashkilotlar, birlashmalar va texnik sistemalar nomlanishining bosh harflarini oʻzidan qisqartirishlar hosil qilinadi. Masalan, ‘United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization’ → ‘UNESCO’, ‘light amplification by stimulated emission of radiation’ → ‘laser’ kabilar.

Fors tilida: Abbreviaturalarni yasash boʻyicha fors tilida ham qator ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Eron akademiyasining *osul va zavābet-e vāzēgozini* “Soʻz tanlashning usul va qoidalari” yoʻriqnomasida “Abbreviatura” termini *extasārsāzi* “qisqartmalar yasash” deb yuritiladi. Yoʻriqnomada uning bir necha usullari keltiriladi.

Yoʻriqnomaning 4.3.3.2. bandi “bir necha harflar yigʻindisidan iborat qisqartmalar”, -deb nomlanib, birikma shaklidagi terminlardan qisqartmalar yasashi nazarda tutiladi. Bu kabi abbreviaturalar yasalganda har bir soʻz avvalgi harflari yozilishi va har biridan soʻng nuqta qoʻyilishi belgilangan. Masalan, ommaviy qirgʻin qurollari hisoblangan “Kimyoviy, biologik va radiaktiv qirgʻin quroli” *ش.م.ر. š.m.r. – رادیواکتیو، میکروبی، شیمیایی, šimyāyi, mikrobi, radiaktiv* shaklida qisqartirilgan. Masalan, hozirgi kunda *ج.ا.ا. j.e.i.* abbreviaturasi *جمهوری اسلامی ایران jomhuri-ye eslāmi-ye irān* ‘Eron Islom Respublikasi’ birikmasi oʻrinda qoʻllanadi.

Yoʻriqnomaning 4.3.3.6. bandida birikma terminlar avvalgi harflarining oʻzini qoʻshib yozish natijasida abbreviatura hosil qilinishi mumkinligi ham qayd qilingan. Masalan, *سیبا sibā – سامانه* *sāmāne-ye ek pārče-ye bānki* ‘Banklar uyushmasi’ kabi band keltirilgan boʻlib, bu ham qisqartma soʻz yasash usuli hisoblanadi. Shuningdek, *ساواک sāvāk* ‘Savak’ abbreviaturasi *سازمان اطلاعات و امنیت کشور sāzmān-e ettelāʾāt va amniyat-e kešvar* ‘Mamlakat axborot va xavfsizlik xizmati’ birikmasi qoʻllanilsa, kitobning xalqaro standart indeksi–ISBN abbreviaterasi uchun *شابک šābek*, yaʼni *شماره استاندارد بین المللی کتاب šomāre-ye standard-e beyn-ol-mellali-ye ketāb* birikmasidan foydalaniladi.

Shuningdek, harbiy terminlar tizimidan oʻrin olgan *هوانیروز havāniruz* *هواپیمایی نیروی زمینی havāpeymā-ye niru ye zamini* ‘Quruqlik kuchlari aviatsiyasi’ birikmasining qisqartmasi (*havā+niru+z*) hisoblanadi.

Davlat energetika korporatsiyasi nomini anglatuvchi *توانیر tavānir* *تولید و انتقال نیرو tovlid-o enteyol-e niru* ‘Energiya ishlab chiqarish va uni yetkazish’ birikmasining qisqartmasidan (*tav+ā+nir*)dir, ‘Energetika boʻyicha maslahatchi’ maʼnosini ifodalovchi *مشانیر mošānir* termini *مشاور نیرو mošāvar-e niru* birikmasidan hosil qilingan.

Terminlarni bunday qoʻllash, asosan, davlat tasarrufidagi yirik tashkilotlar, baynalmilal nomlanishga ega mamlakat organlari va harbiy sohada keng amalga oshiriladi. Shunday holat ijtimoiy-siyosiy terminlari doirasida ham roʻy bergan. Uning ikki koʻrinishi koʻzga tashlanadi. 1-

² Terminology work — Principles and Methods // International Standard ISO 704. Second edition 2000-11-15. Reference number ISO 704:2000 (E). – 41 p.

turkumga oid terminlarning bosh soʻzi toʻliq olinib, tobe soʻzlarning boshlangʻich harflari qoʻshib yoziladi. Masalan:

āyinnāme-ye bākub – آیین نامه باکوب *āyinnāme-ye beyn-al-mellali-ye amniyat-e keštihā va tašhilāt-e bandari* ‘Kema va bandargoh imtiyozlari xalqaro kodeksi’ (abb. ISPS code – International Ship And Port Facility Code);

āyinnāme-ye bemā – آیین نامه بما *āyinnāme-ye beyn-al-mellali-ye modiriyat-e imani* ‘Kemadan foydalanish xavfsizligini taʼminlash xalqaro kodeksi’ (abb. ISM Code – International Safety Management Code);

āyinnāme-ye kālā-ye xatarnāk ‘xavfli yuklar xalqaro kodeksi’ – xavfli yuklarni tashish, yuklash, transportirovka qilishning xalqaro normasi 1956-yilda ishlab chiqilgan (abb. IMDG code);

āyinnāme-ye vasahāf – آیین نامه وساحف *āyinnāme-ye vāhed-e sayyār-e haffāri-ye farāsāhel* ‘Sohilboʻyi yagona sayyor mobil kodeksi’ (abb. MODU Code – Mobile Offshore Drilling Unit Code).

2-turkumga oid qisqartmalarda birikmalarning bosh harflari qoʻshilib, bir butun terminga aylantiriladi:

ajā – ارتش جمهوری اسلامی *arteš-e jomhuri ye eslāmi* ‘Islom Respublikasi armiyasi’;

rajā – راه آهن جمهوری اسلامی *rāh āhan-e jomhuri-ye eslāmi* ‘Islom Respublikasi temir yoʻli’;

samājā – ستاد مشترک ارتش جمهوری اسلامی *setād-e moštarak-e arteš-e jomhuri ye eslāmi* ‘Islom davlatlari armiyasining birlashgan shtabi’;

gabāk – گاباک *govāhināme-ye beyn-al-mellali-ye amniyat-e kešti* ‘Kemalar xavfsizligi xalqaro sertifikat’ (abb. ISSC – Information Ship Security Certificate);

sajāvād – سجاوادی *sāmāne-ye jahāni-ye ezterār va imani-ye daryāyi* ‘Kemalar xavfsizligini taʼminlash global tizimi’ (abb. GMDSS – Global Marine Distress and Safety System);

nedājā – نداجا *niru-ye daryā-ye arteš-e jomhuri-ye eslāmi* ‘Islom Respublikasi harbiy dengiz floti kuchlari’;

nahājā – نهاجا *niru-ye havāi-ye arteš-e jomhuri-ye eslāmi* ‘Islom Respublikasi harbiy havo kuchlari’;

hamā – همای *havāpeymā-ye melli-ye Irān* ‘Eron fuqaro aviatsiyasi’.

Adabiyotlarda qayd etilishicha, “termin qisqa boʻlishi... Bu uning turli hujjatlashtirish ishlarida, yaʼni ilmiy-texnik, darslik va adabiyotga oid maʼlumotnomalarda tez yodda qolish va keng foydalanilishni taʼminlaydi”.

Fors tilidagi bu kabi qisqartmalar yasalishi ISO 704 standarti talablarida belgilangan qoidalarga mos kelsa-da, ammo qisqartmalar borasida koʻrsatilgan qoidalarni toʻliqligicha aks ettirmaydi. Demak, Akademiya tomonidan abbreviaturalar yasalmoqda va foydalanish uchun taklif qilinmoqda. Ammo ulardan foydalanish ogʻzaki va yozma nutqda deyarli kuzatilmaydi. Abbreviaturalar oʻrnida birikmani qoʻllash amalda oʻz isbotini topmoqda.

Oʻzbek tilida: 1991-yillarda faoliyat yuritgan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Respublika atamashunoslik qoʻmitasi Axborotnomasida quyidagicha qayd etilgan:

“Oʻzbekcha qisqartmalar tuzish quyidagi talablarga javob berish lozim:

1. Qisqartmalar oʻzbekcha birikmalar asosida tuzilishi.
2. Qisqartmalarda talaffuz qulayligiga erishish.
3. Omma uchun noqulaylik uygʻotmasligi.

Shuni qayd etish kerakki, ijtimoiy-siyosiy terminologiyada qisqartmalar, asosan, meʼyoriy-huquqiy hujjatlar, qonunlar, qarorlar, davlat va rasmiy ish yuritish materiallari, xalqaro tashkilotlar va birlashmalar nomlarining qisqartmalari (klisheolari) hamda mamlakat vazirliklari nomlarining bosh harflari birikmasi yoki bosh boʻgʻinlar birikmasidan tashkil topgan boʻladi. Bu oʻrinda, yaʼni qisqartmalarning oʻzbekcha varianti berilayotganda ham terminlar kalkalanadi va ayrim oʻrinlarda, toʻliq oʻzbekchalashtirish imkoniyati mavjud boʻlmaydi.

Atamaqo‘m Nizomining 6-bandida quyidagicha yozib qo‘yilgan: “O‘zbek tilidagi qisqartmalarga ham e‘tibor berish lozim. Hozirgacha turli tashkilot va muassasalar nomlarining qisqartmasi o‘zbekcha matnlarda, o‘zbek tilida yozilgan peshlavhalarda ham faqat ruscha shaklda (“Uzdrevprom”, “Uzbekles”, “Uzxlopkoprom”, “Uzsortsemovosh” kabi) yozilib kelmoqdaki, bu holga chek qo‘yish kerak. Ularning o‘zbekcha qisqartmasi o‘zbekcha birikmalar asosida yaratilishi, o‘zbekcha nom bilan atalishi maqsadga muvofiq bo‘ladi”.

Shu o‘rinda, ingliz tilidan rus tili orqali o‘zlashgan ‘abbreviatura‘ uchun o‘zbek tilida ‘qisqartma‘ terminini taklif qilish o‘rinli.

Qadimda so‘zlarni qisqartirish o‘zbek adabiy tilida bo‘lmagan, lekin ularning ba‘zi unsurlari mavjud. So‘zlarni qisqartirish o‘zbek tilida so‘z va birikma tarkibida, qo‘shma so‘z tarkibida ham sodir bo‘lishi mumkin: qizil urug‘li qovun-qizilurug‘, o‘qday tez harakatlanadigan ilon-o‘qilon, bosib ko‘rib olinadigan qovun-bosvoldi va boshqalar.

Har qanday tilda boshqa tildan o‘zlashgan so‘zlar bo‘lgani kabi o‘zlashma qisqartmalar ham bo‘lishi tabiiydir. U yoki bu darajada qisqartmalar o‘zlashtirilgan ekan qaysi xillari o‘zlashtirilishi mumkin, degan savol turadi. Demak, o‘zlashtirishda ma‘lum me‘yorga amal qilinishi lozim va qisqartmalarning quyidagi turlarini farqlash mumkin:

1. Xalqaro tashkilotlarning nomlarini ifodalaydigan qisqartmalar: YUNESKO-Birlashgan Millatlar Tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkiloti; FIFA, UYEFA kabi xalqaro sport tashkilotlarini ifodalovchi qisqartmalar.

2. So‘z-nomga aylangan qisqartmalar “lazer” kabi.

3. Xalqaro miqyosdagi qo‘llanadigan kimyoviy mahsulotning nomlari: GXSG – geksoxorliklogeksan, GETF – geksoetiltitrofosfat, DIT- dixlordifeniltrioksetan va shu kabi.

4. Turli uchish apparatlari va boshqa texnika vositalarining markalari hisoblangan qisqartmalar: TU-154, IL-86, BelAZ, KAMAZ, VAZ kabi.

Qisqartmalarni o‘zbekchallashtirishda o‘zbek tilida hozirgacha qo‘llanilgan tajribalarga tayangan holda ish ko‘rish kerak:

1. Qisqartmalar tuzishda o‘zbekcha birikmalarni asos qilib olish: Birlashgan Millatlar tashkiloti – BMT, Davlat avtomobili nazorati – DAN va boshqalar.

2. Birikmalar tarkibidagi so‘zlarning bo‘g‘inlari asosida qisqartmalar tuzishda tajribaga asoslanish: boshbux, O‘znavnashr, Atamaqo‘m kabi.

3. Aralash tipli qisqartmalar yasash: ToshDPI, ToshMI, ToshDU kabi.

4. Ma‘muriy muassasalar va tashkilotlarning nomi bo‘lgan ko‘p qismli birikmalarni qisqartirish. Mazkur qisqartmalar vaqtini tejash bilan birga, tashkilot va muassasalarning muhrlardagi yozuvlarni imkoni boricha ixchamlashtirishni nazarda tutadi. Bu jihatdan, qisqartmalarning tarkibiy birikmalarni tashkil etgan so‘zlar miqdoriga teng kelishi shart emas. Masalan, O‘zbekiston Avtomobil vazirligi – “O‘zbekiston Respublikasi Avtoyo‘lvoz” va shu kabilar.

1991-yildan hozirgi davrga qadar ko‘p muddat o‘tmagan bo‘lsa-da, Atamaqo‘m o‘z Nizomida ta‘kidlab o‘tgan qisqartmalar ayni damda leksika tarkibidan chiqib ketgan va ularning o‘rniga boshqa abbreviaturalar kirib kelgan. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, o‘zbek tili uchun ham abbreviatura va klishelar yasashning namunalari keltirilgani va tilning sofliğini saqlab qolishga bo‘lgan intilish quvonarli hol.

Abbreviaturalar aslida murakkab birikma terminlarning qisqartirilgan shakli bo‘lib, ularni ifodalash va o‘quvchiga tushunarli bo‘lish uchun dastlab terminning asl varianti va qavs ichida qisqartirilgan varianti bosh harflar bilan yoziladi yoki aksincha. Bu haqda adabiyotlarda shunday deyiladi: “Kontekstda berilayotganda terminlarning to‘liq va qisqartirilgan shakllari bir vaqtning o‘zida ishlatiladi. Qisqartirilgan shakldan foydalanish sinonimlar va omonimlarga olib keladi. Odatda, atama matnda birinchi marta paydo bo‘lganda, hujjatlar to‘liq shaklda (qisqartirilgan shaklini ko‘rsatgan holda) foydalanishi kerak. Shundan keyingina, butun matn davomida qisqartirilgan shakldan foydalanish mumkin bo‘ladi. Masalan, Vsemirnaya organizatsiya zdravooxraneniya (VOZ), Region Yugo Vostochnoy Azii (RYUVA)”.

“O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”gi Vazirlar Mahkamasi Qarorining 74-bandida: “Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo‘lmagan ba’zi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: AQSh (Amerika Qo‘shma Shtatlari), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AES (atom elektr stansiyasi) kabi. Qisqartma tarkibida bo‘g‘inga teng qism bo‘lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: ToshDTU (Toshkent davlat texnika universiteti) kabi”,-deb qayd etilgan. Tadqiqot davomida biz quyidagi ijtimoiy-siyosiy abbreviaturalarning ishlatilganiga guvohi bo‘ldik :

Davlat nomlari abbreviaturasi: Amerika Qo‘shma Shtatlari - AQSH, Rossiya Federatsiyasi - RF, Eron Islom Respublikasi - EIR, Afg‘oniston Islom Respublikasi-AIR, Xitoy Xalq Respublikasi – XXR, Germaniya Federativ Respublikasi - GFR va boshqalar. Masalan:

“Vazir Van I davlatimiz rahbariga XXR Raisi Si Szinpinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi”.

Xalqaro standartda yozilishicha, “Tarjima qilinadigan tilda ekvivalenti bo‘lmagan termin asl tilda qoldirilgani ma’qul. Yuridik shaxslarga nisbatan ism huquqiy hujjatda ishlatiladigan shaklda qolishi kerak. Biroq, ko‘plab sarlavhalarda odatda boshqa tillarda ishlatiladigan va standart ma’lumotnomalarda mavjud bo‘lgan rasmiy tarjimalar mavjud. Bunday rasmiy tarjimalardan foydalanish kerak. Agar ismning rasmiy tarjimasi bo‘lmasa, unda uning transkripsiyasi olinadi yoki matnni yaxshiroq tushunish uchun qavs ichida izoh yoki ushbu tushunchaning tarjimasini qo‘shish mumkin” .

Xalqaro doiradagi tashkilotlar abbreviaturasi: Bu abbreviaturalarni ham shartli ravishda ikkiga ajratish o‘rinli:

1) Xalqaro nomlanishning o‘zgarishsiz qabul qilingan abbreviatura varianti. Masalan: YUNESKO (United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization ning abbreviaturasi), YUNISEF (United Nations International Children’s Emergency Fund), BRM (Barqaror Rivojlanish Maqsadlari), FAO (Food and Agriculture Organization), MCKO (Международная стандартная классификация образования), СПЕКА (Специальная программа ООН для экономик Центральной Азии). Misollarga diqqat qilamiz:

“Bunday tahdidlarni bartaraf etish bo‘yicha Dastur ishlab chiqish uchun BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) shafeligida mamlakatlar qishloq xo‘jaligi vazirlarining uchrashuvini o‘tkazish taklif etildi” .

Yoki:

“Professional ta’lim dasturlari YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg‘unlashmaganligi, o‘quv jarayoniga O‘zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to‘laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o‘rin egallashlariga to‘sqinlik qilmoqda.

Yana bir misol:

“Ijrochi kotib Orolbo‘yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi sifatida e’lon qilish bo‘yicha BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasi qabul qilinganini hamda O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun BMT Maxsus komissiyasidagi (SPEKA) raisligini yuksak baholadi” .

2) Xalqaro nomlanishning o‘zbekchaga kalkalangan varianti. Masalan: BMT – Birlashgan Millatlar Tashkiloti (ООН - Организация Объединенных Наций), YEXHB DIIHV – Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi (БДИПЧ ОБСЕ – Бюро по демократическим институтам и правам человека), YEIK – Yevropa iqtisodiy komissiyasi (ЕЭК – Европейская экономическая комиссия), SHNT – Shanhay Hamkorlik Tashkiloti (ШОС - Шанхайская организация сотрудничества), TTD – Turkiy Tilli Davlatlar, ITB – Islom taraqqiyot banki (ИБР - Исламский банк развития), XEK – Xalqaro ekspert kengashi (МЭС – Международный экспертный совет). Masalan:

“O‘zbekistonning saylovlar o‘tkazish jarayonida YEXHT DIIHB bilan o‘zaro hamkorlik samarasi o‘laroq mamlakatimiz milliy saylov tizimini yanada demokratlashtirish ... ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda” .

Diqqat qilinsa, abbreviaturalar ayrim vaqtlarda so‘z birikmasi shaklida, boshqa vaqtlarda esa yoki abbreviatura, yoki kontekstual dubletlar sifatida ifoda etilmoqda. Birikma klishe'larni yasashda eng ko‘p diqqat qaratadigan jihati bu – birikmalar o‘rtasidagi bog‘liqlik va mazmunan shaffoflikdir.

Xalqaro Standartda qayd etilishicha, “Umumiy holda, shaxsiy ism, nomlanish, sarlavha, mahalliy nom, bino, tashkilot nomi va boshqalar birikma-nomlanish, ya’ni klishe'larni anglatadi. Birinchidan, terminlarni ishlab chiqishda, maxsus mavzu sohasiga tegishli bo‘lgan shaxsiy ism va atoqli nom o‘rtasida farq ajratiladi. Ikkinchidan, individual tushuncha belgilanishida, shuningdek o‘ziga xos nomlar ham mavjud bo‘lib, lekin hamma nomlar ham ismlar bo‘la olmaydi. Masalan, Meri Robinson yoki Barak Obama singari ismlar shaxsiy ismlardir, muayyan predmet sohasidagi alohida belgilangan shaxslarni anglatadigan nomlar yoki sarlavhalar atamalaridir, ammo ular ham terminologiya tarkibida o‘rganiladi. Masalan, “BMTning Inson huquqlari bo‘yicha komissari”, “AQSH Prezidenti”.

Vazirliklar abbreviaturasi: O‘zbek tilidagi vazirliklar nomlari tadqiqi davomida ham ularni ikki guruhga taqsimladik:

1) qisqartmalarsiz, to‘liq birikma ishlatiladi: Iqtisodiyot vazirligi; Moliya vazirligi; Qishloq xo‘jaligi vazirligi; Suv xo‘jaligi vazirligi; Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi; Mudofaa vazirligi; Madaniyat vazirligi; Adliya vazirligi; Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi; Innovatsion rivojlanish vazirligi; Jismoniy tarbiya va sport vazirligi; Qurilish vazirligi; Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi; Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi.

2) qisqartirilib, abbreviatura shaklida ham ishlatiladi: Tashqi ishlar vazirligi (TIV), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (OO‘MTV), Ichki ishlar vazirligi (IIV); Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV); Xalq ta’limi vazirligi (XTV); Maktabgacha ta’lim vazirligi (MTV); Sog‘liqni saqlash vazirligi (SSV) .

Masalan:

“Ta’kidlash joizki, mazkur loyiha davlat ilmiy-tadqiqot institutlari (ITI) va oliy ta’lim muassasalariga (OTM) xalqaro darajadagi tadqiqotlarini olib borishga yordam beradi, shuningdek, ularning ish natijalarini tijoratlashtirishga imkon beradi” .

Bu o‘rinda vazirliklar abbreviaturasi va ularning struktur-semantik tahlilini olib borish yana bir tadqiqot ishini talab qiladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida quyidagi abbreviaturalarga duch keldik:

Keskin qisqartma shakliga keltirilgan terminlar . Bunda birikmalar qisman qisqartiriladi va barchasi qo‘shib yoziladi.

‘O‘ztransgaz’ – “O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy va gaz”;

‘O‘zLiDeP’ – “O‘zbekiston liberal demokratik partiyasi”;

‘Davergeodezkadastr qo‘mitasi’ - “O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi”;

‘UzA’ – “O‘zbekiston axborot Agentligi”;

‘Dunyo AA’ – “Dunyo axborot agentligi”

‘DAVSUVXO‘JALIKNAZORAT’ - “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi katta va alohida muhim suv xo‘jaligi obyektlarining texnik holatini hamda bexatar ishlashini nazorat qilish davlat inspeksiyasi”;

Qo‘shma termin shakliga keltirilgan terminlar. Bu ko‘rinishda birikmalar tarkibidagi asosiy so‘zlarning barchasi qo‘shib yoziladi:

‘O‘zbekipaksanoat’ – “O‘zbekiston ipak sanoati qo‘mitasi”;

“Yermulkkadastr” DK’ - “Yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastr davlat korxonalarini”;

‘O‘zbekneftgaz’ – “O‘zbekiston neft va gaz qo‘mitasi”;

‘O‘zagrokimyohimoya’ AJ – “O‘zbekiston agrar kimyoviy himoyalash aksionerlik jamiyati”;

‘O‘zbekgidroenergo’ – “O‘zbekiston suv energiyasi qo‘mitasi”;

‘O‘zmilliybank’ AJ – “O‘zbekiston milliy banki” aksionerlik jamiyati;

‘Texnopark’ – “Texnologik park”.

Masalan:

“Bunda, 2-ilovaga muvofiq ekiladigan tut ko‘chatlari “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tarkibidagi pillachilik klasterlarining mablag‘lari hisobidan ekiladi”.

Yana bir misol:

“Shuning uchun joriy yildan barcha davlat korxonalarini isloh qilish dasturi amalga oshirilmoqda. Jumladan, kelgusi yilda Navoiy kon-metallurgiya kombinati, “O‘zbekneftgaz”, “O‘zbekgidroenergo”, “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyatlari xalqaro moliya bozoriga chiqib, davlat kafolatisiz mablag‘ jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi”.

Akronimlar. Bunda birikmalarning bosh harflari yoziladi:

O‘RK – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;

O‘RQ – O‘zbekiston Respublikasi Qonuni;

PQ – Prezident Qarori;

PF – Prezident Farmoni

KMRO‘KIAT – “Ko‘chmas mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish va kadastr integratsiyalashtirilgan axborot tizimi”;

STIR – “Soliq to‘lovchining indentifikatsiya raqami”;

NKMK – “Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamg‘armasi”;

TIVK – “Tashqi Ishlar Vazirlari Kengashi”;

DXX – “Davlat xavfsizlik xizmati”;

AOKA – “Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi”;

MSK – “Markaziy saylov komissiyasi”;

SDP – “Sotsial-demokratik partiya”;

XDP – “Xalq demokratik partiyasi”;

MTRK – “Milliy tele-radio kompaniyasi”;

MCHJ – “Mas‘uliyati cheklangan jamiyat”

“Har qanday soha terminologiyasi terminlari o‘zboshimchalik bilan yoki tasodifiy so‘zlar jamlanmasidan iborat bo‘lishi mumkin emas. Bu ko‘rib chiqilayotgan tushunchalar tizimiga mos keladigan ma‘noviy jihatdan izchillikka ega tizim bo‘lishi kerak. Mavjud terminlar va atamalar, shuningdek, yangi yasalayotgan terminlar ushbu tizim orqali shakllantirilishi kerak”. Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek tilida zamonga moslashish hamda nazarda tutilayotgan tushunchani aniq ifodalash maqsadida ma‘lum qismi o‘zlashma so‘zlar qisqartma harflaridan, qolgan qismi esa o‘zbekcha, ya‘ni “o‘zlashma+o‘zbekcha” yoki “qisqartma+o‘zlashma” modellarida termin qilib shakllantirilgan terminlar ham yasaliq qolgan. Xatto 2019-yil 12-dekabr sanasida Vazirlar Mahkamasi Qarori bilan ta‘sis etilgan “O‘zbek tilini rivojlantirish departamenti”ning rasmiy sayti ham ana shunday qorishiq tarzda belgilangan:

til.gov.uz – O‘zbek tilini rivojlantirish departamenti rasmiy sayti

‘IT-Parklar’ – “Innovatsion texnologik Parklar”;

‘DTM’ – “Davlat Test Markazi”;

‘e-hukumat’ – “Elektoron hukumat”.

Yana shuni kuzatish mumkinki, o‘zbek tilida muqobili bo‘la turib, ma‘lum platforma tashkil etilayotganda uning o‘zlashmalaridan, ya‘ni ingliz tilidagi birikmalaridan qisqartmalar tashkil etilgan. Shu bilan birga internet tarmog‘ida maxsus sayt yoki platforma sifatida ular joylashtirilgan:

my.gov.uz - Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali

mininnovation.uz – “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi rasmiy sayti”

TSUOS.uz – “Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rasmiy sayti”;

ye-ijro auksion – “Elektron-ijro kimoshdi savdosi”;
e-Fitouz – “O‘simliklar nazorati avtomatlashtirilgan axborot tizimi”.

Masalan:

“Toshkent shahri, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo va Farg‘ona viloyatlarida tashkil etilgan “IT-Parklar”da 500 dan ortiq zamonaviy kompaniyalar ish boshladi”

Yana bir misol:

“E-ijro auksion da g‘olib bo‘lgan tadbirkorga mulki olib berildi” .

Yoki:

“Agentlikning “e-Fitouz” avtomatlashtirilgan axborot tizimini yanada keng joriy qilish maqsadida sohaga oid barcha faoliyatni ushbu tizimga integratsiya qilishda tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin” .

Umuman olganda, abbreviatura yasash bo‘yicha Atamaqo‘m Nizomida belgilanmagan yana boshqa yo‘llar bilan ham qisqartmalar yasalgan. Tahlillardan kelib chiqib, quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

1. Fors tilida abbreviatura hosil qilish bo‘yicha Akademiya Yo‘riqnomasiga tayanilganligi kuzatildi. Shuni qayd etish lozimki, Xalqaro Standartda abbreviatura yasash bo‘yicha taklif qilingan qator usullar Yo‘riqnomada mavjud emasligi aniqlandi. Buni fors tilining ichki spetsifik-grafik xususiyati bilan bog‘lash o‘rinli.

2. O‘zbek tilida abbreviatura yasashda Atamaqo‘m Nizomida qayd etilgan usullardan tashqari ayni damda yana boshqa ko‘pgina usullarda qisqartmalar yasalanishi kuzatildi. Ayniqsa, toponimik atamalar yasashda o‘zbek tilining so‘z yasash qoidasiga rioya etilmasligi, hamda joy nomlarini tez-tez o‘zgartirilishi aniqlandi. Bu esa tilda terminologiyaning ba‘zi nazariy-empirik xususiyatlariga zid holatdir.

3. ISO 704 Xalqaro Standarti, Eronning “Fors tili va adabiyoti akademiyasi”, O‘zbek Atamaqo‘mi o‘rtasidagi termin yasash bo‘yicha bunday tafovut tillarning o‘ziga xos ichki qonuniyatlari va qat‘iy ishlab chiqilmagan prinsiplari asosida yuzaga kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Amid H. Farhang-e farsi-ye amid. -1389 h/sh. S. 39. // Amid H. Persian Dictionary of Amid/ -2010. P. 25.
2. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek tilining leksik qatlamlari. –T.: Fan, 1985.
3. Hasan Dust M. Farhang-e Risheshenasi-ye zaban-e farsi. Jeld-e dovvom. P-D Farhangestan-e zaban va adabiyot-e farsi. -Tehran, 1395. 1385.
4. O‘zbek tili atamashunosligi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Respublika atamashunoslik qo‘mitasi. –T., 1992.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A. Madvaliev tahriri ostida. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. // available at: www.ziyouz.com kutubxonasi.
- a) O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili haqida”gi Qonuni (1989). Available at: <http://www.lex.uz/acts>
6. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida. Available at: <http://www.lex.uz/acts/121051>
7. Tarix-e Iran dar yek negah. -Tehran, 1387 h/sh. S.34. // Iranian history at a glance. Tehran, 2008. S.34.
8. Terminology work — Principles and Methods // International Standard ISO 704. Second edition 2000-11-15. Reference number ISO 704:2000 (E).
9. Алексеева Л. М. Проблемы термина и терминообразования: Учеб. пособие по спецкурсу / Перм. ун.-т. –Пермь, 1998.
10. Розенталь Д. Э., Голуб И. Б., Теленкова А. Современный русский язык. – М.: Айрис-Пресс, 2002. – С. 137.

11. Qosimov N. O'zbek texnikaviy terminologiyasida sinonimlik va uni bartaraf etishning yo'llari.//O'zbek terminologiyasida leksik variantlar. –T.:Fan, 1986.
12. Лингвистический аспект стандартизации терминологии. –М., Наука, 1993.
13. Mirtojibev M.M. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. –T.,O'zMU, 2000. – B.32.
14. Татаринов В.А. Общее терминоведение. Энциклопедический словарь – М.: Московский Лицей, 2006. -С.173.

Internet manbalari

1. <https://religions.uz/news/detail?id=443>
2. <https://huquqburch.uz/uz/gyohvandlik-oqibatlar>
3. <https://lex.uz/docs/4967679> // “O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan o'zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining Qonuni.
4. <https://asr.uz/51365/>